



Ko'paysinova Laziza Karimovna,
Toshkent Arxitektura va qurilish universiteti
Katta o'qituvchisi
E-mail: metro8368@mail.ru

QISHLOQ JOYLARIDA ISHSIZ YOSHLARNI KASBGA YO'NALTIRISH VA KASBGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотатсия. Ushbu maqolada respublikamizning qishloq joylarida ishsiz yoshlarni kasbga yo'naltirish va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish muammolari tadqiq etilgan. Shuningdek, qishloq joylarida ishsiz yoshlarni kasbga yo'naltirish va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish asosida qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ishsiz yoshlarni mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan.

Аннотация. В данной статье исследованы проблемы совершенствования систем профессиональной ориентации и подготовки безработной молодежи в сельской местности. А также, на основе совершенствование систем профессиональной ориентации и подготовки безработной молодежи в сельском местности раскрыты социально-экономические значения, важность обеспечение работой сельской молодежи, уменьшение безработицы, создание новых рабочих мест и повышения конкурентоспособности безработной молодежи на рынке труда.

Annotation. This article explores the problems of improving vocational guidance systems and preparing unemployed youth in rural areas. Additional, on the basis of improving vocational guidance systems and training unemployed youth in rural areas, the socio-economic importance of the importance of providing rural youth with jobs, reducing unemployment, creating new jobs and increasing the competitiveness of unemployed youth in the labor market has been revealed.

Tayanch soʻzlar: qishloq yoshlari, ish bilan taʼminlash, kasbga yoʻnaltirish, kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash, ishsizlik, bandlik, mehnat resurslari, mehnat bozori, raqobatbardoshlik, tadbirkorlik.

Ключевые слова: сельское молодёжи, обеспечение работой, профессионального ориентации, подготовка к профессии, переподготовка, безработица, занятость, трудовые ресурсы, рынок труда, конкурентоспособность, предпринимательство.

Keywords: rural youth, providing jobs, vocational guidance, preparing for the profession, retraining, unemployment, employment, labor resources, the labor market, competitiveness, entrepreneurship.

Kirish. Yoshlar oʻrtasida ishsizlik koʻrsatkichlarining yuqori darajada oʻsib borayotgani koʻpchilik mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqaruvchi omilga aylanib bormoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti maʼlumotiga koʻra, 2019-yilning dekabr oyidan boshlanib hozirga qadar davom etayotgan pandemiya tufayli dunyodagi yoshlarning 20% i ishsiz qoldi. **Koronavirus pandemiyasi oqibatida dunyodagi har besh nafar yoshdan biri ishsiz qoldi**, ishlayotganlarining bandligi esa 23% ga qisqardi¹.

Maʼlum boʻlishicha, 2020-yilning fevral oyi oxiridan beri yoshlar orasida ishsizlik birdaniga ortgani kuzatilmoqda. Bunda yigitlardan koʻra qizlar koʻproq ishsiz qolgan. Pandemiya oqibatida yoshlar nafaqat ishsiz qolyapti, balki ularning taʼlim jarayoni va kasbiy tayyorgarligi izdan chiqdi, ayniqsa, yangi ish boshlaydiganlar yoki bir ishdan boshqasiga oʻtayotganlar uchun ogʻir boʻlyapti.

Mazkur sharoitlarda ishsiz yoshlarni kasbga yoʻnaltirish va kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish – toʻla va samarali ish bilan taʼminlashga koʻmaklashuvchi eng muhim omillardan biri boʻlib, unga jami aholisining 30% dan ziyodi yoshlar boʻlgan Oʻzbekiston aholisini ijtimoiy himoya qilish choralari bir turi sifatida qaraladi.

Ishsizlik katta iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy va baʼzan psixologik xarajatlarga olib keladi. Iqtisodiy xarajatlar barcha iqtisodiy faol aholi band boʻlmashligi oqibatida YIMda oʻz ifodasini topadi. Moliyaviy xarajatlarga, birinchidan, ishsizlarga ijtimoiy yordam sifatida ketadigan xarajatlar (nafaqa va moddiy yordamning boshqa turlari, ish bilan bandlik dasturini amalga oshirishga), ikkinchidan, davlat byudjetiga tushmagan soliqlar summasi orqali hisoblanadigan xarajatlar kiradi.

Oʻzbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan taʼminlash toʻgʻrisida”gi Qonunning 23-moddasiga koʻra, mehnat organlarida roʻyxatga olingan va ishsiz deb eʼtirof etilgan shaxslarni, jumladan,

¹ <https://azon.uz/content/views/30846> rasmiy kanali maʼlumotlari.

Ishsiz yoshlarni kasbga yoʻnaltirish va kasbga tayyorlash tizimining faol rivojlanishi ishsiz yoshlar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi. Shu jihatdan bizning hayotimizga barqaror kirib kelgan “ishsiz yoshlar raqobatbardoshligi” tushunchasini yanada aniqlashtirish zarur.

yoshlarni ham kasbga yoʻnaltirish, tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish quyidagi holatlarda amalga oshirilishi mumkin, agar:

- ishsiz shaxs zarur kasb malakasiga ega boʻlmaganligi tufayli unga maqbul keladigan ish tanlash mumkin boʻlmasa;
- ishsiz shaxsning kasb koʻnikmalariga mos keladigan ish yoʻqligi sababli uning kasbini (mutaxassisligini, mashgʻulot turini) oʻzgartirish zarur boʻlsa;
- ishsiz shaxs avvalgi kasbi boʻyicha ish bajarish qobiliyatini yoʻqotgan boʻlsa².

Tuman (shahar) Bandlikka koʻmaklashish markazlarida (BKM) ish izlovchi sifatida roʻyxatdan oʻtgan yoshlar bepul kasbiy maslahat, tayyorlov va qayta tayyorlov boʻyicha, shuningdek, ish joyi, lavozimlar, ish tartibi boʻyicha maʼlumot olish huquqiga egadirlar. Shu bois Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi rasmiy veb saytining Interaktiv xizmatlar boʻlimida “Ish izlovchi sifatida roʻyxatdan oʻtish” xizmatidan foydalanish mumkin³.

Asosiy qism. Soʻnggi yillarda xorijiy va mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda yoshlarning ish bilan bandligi va ishsizligi, yigit va qizlarni mehnat faoliyatiga kasbiy tayyorlash hamda qayta tayyorlash muammolariga ancha koʻproq eʼtibor qaratilmoqda. Bu Oʻzbekistonda ana shu mavzuga bagʻishlab ilmiy-texnik konferensiyalar oʻtkazish, ishsiz yoshlar raqobatbardoshligining asosi sifatida umumiy va kasbiy taʼlim sifatini oshirishga yoʻnaltirilgan dissertatsiyalar tayyorlash, qonunchilik va boshqa meʼyoriy hujjatlar qabul qilishda namoyon boʻlmoqda. Mazkur mavzu S.D.Reznik, I.L.Igoshina, A.A.Sochilova (“Shaxsiy raqobatbardoshlik asoslari”, “Menejment karyerasi”), V.I.Andreyev (“Конкурентология”), M.Xolmuxamedov (Yoshlar mehnat bozorini tartibga solish), K.A.Eshpoʻlatov (Mehnat bozori va kasbiy taʼlim uzviyligini taʼminlash), M.B.Ataniyazova (Milliy mehnat bozorini tartibga solishni takomillashtirish) va boshqalarning tadqiqotlarida oʻz aksini topgan.

Ishsiz yoshlarni kasbga yoʻnaltirish va kasbga tayyorlash tizimining faol rivojlanishi ishsiz yoshlar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi. Shu jihatdan bizning hayotimizga barqaror kirib kelgan “ishsiz yoshlar raqobatbardoshligi” tushunchasini yanada aniqlashtirish zarur deb hisoblaymiz, chunki ushbu masala boʻyicha

² Ўзбекистон Республикасининг “Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида”ги Қонуни // www.lex.uz.

³ Касбий таълим ва аҳолининг ишсиз қатламини қайта тайёрлаш // <https://mehnat.uz>.

fikrlar bir-biridan keskin farq qiladi. Xususan, L.G.Shatoxin “keng ma’noda bu – potensial sotib oluvchi, ya’ni yollanib ishlaydigan ish beruvchi uchun mehnat bozoridagi xodimlar xislatlarining foydalilik (jozibadorlik) darajasi; tor ma’noda – bu xodimga bo’sh ish o’rni uchun kurashda ustunlik beradigan kasbga (mutaxassislikka) ega bo’lish”⁴, deb hisoblagan. “Mikro, mezo va makro darajadagi raqobatbardoshlik” asari (M.Gelvanovskiy, V.Jukovskaya, I.Trofimova), shuningdek, “Mehnat iqtisodiyoti va ijtimoiy-mehnat munosabatlari” (G.G.Melikyan, R.P.Kolosova) darsligining mualliflari bilan bahsga kirishar ekan, A.G.Shatoxin ularning qarashlaridan (birinchi ko’rsatilganlar raqobatbardoshlikni iqtisodiy sohaga nisbatan keng ma’nodagi musobaqada yutish imkoniyati – iqtisodiy musobaqa subyektlari uchun ustunliklar yaratuvchi xislatlarga ega bo’lish imkoniyati, deb biladi⁵ va ikkinchi ko’rsatilganlar raqobatbardoshlikni – zamonaviy ish beruvchi mehnat bozorida o’z ishchi kuchiga talab topish imkoniyati, deb tushunadi⁶) farq qiluvchi o’z nuqtayi nazarini asoslab beradi. Bunda u raqobatbardoshlikni ishchi kuchining farq qiluvchi sifatleri va tavsifi bilan emas, uning jozibadorligi bilan bog’laydi.

I.V.Virinaning yosh mutaxassislarning kasbiy raqobatbardoshligi haqidagi fikrlari A.G.Shatoxinning nuqtayi nazariga ancha yaqin. U raqobatbardoshlikni “ishsizning raqobatchilar oldidagi ustunligini yaratishga ko’maklashuvchi qobiliyatlari tavsifining yig’inidisigina emas, balki ishchi kuchi xaridorining muayyan ehtiyojini qondirish layoqati ham”⁷, deb tushungan.

Bugungi kunda MDH mamlakatlari aholisi soni ancha kamaygan Belarus, Rossiya, Ukraina va Qozog’iston kabi mamlakatlardan farqli o’laroq, O’zbekistonda aholi soni ma’lum darajada oshib bormoqda. Bu, o’z navbatida, O’zbekistonda aholining tug’ilish darajasi o’sib borayotgani bilan tavsiflanmoqda. O’zbekiston statistika ma’lumotlariga qaraganda, oxirgi besh yil ichida aholining yillik o’sish darajasi o’rtacha 1,2% ni tashkil etmoqda⁸.

***Bugungi
kunda MDH
mamlakatlari
aholisi soni
ancha kamaygan
Belorus, Rossiya,
Ukraina va
Qozog’iston kabi
mamlakatlardan
farqli o’laroq,
O’zbekistonda
aholi soni ma’lum
darajada oshib
bormoqda.***

⁴ Шатокин А.Г. Конкурентоспособность работников на рынке труда / Автореф. дис. ... на соиск. уч. степ. к.э.н. – Ярославль, 2000. – С.6-7.


⁵ Гельвановский М. Конкурентоспособность в микро- мезо- и макроуровневом измерениях // Российский экономический журнал, 2008. – №3. – С. 66-77.

⁶ Меликян Г.Г., Колосова Р.П. Экономика труда и социально-трудовые отношения. – Москва, 2014. – С.300.

⁷ Вирин И.В. Формирование и развитие конкурентоспособности молодых специалистов на рынке труда / Автореферат дис. ... на соиск. уч. степ. к.э.н. – Москва, 2007 – С.5.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитасининг маълумотлари.

Qishloq ishsiz yoshlarini kasb-hunarga qayta tayyorlashni samarali tashkil etish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan yangi kasb-hunar va mutaxassisliklarga ega bo'lish uchun ularga tegishli shart-sharoitlar yaratish maqsadida qator qonunosti hujjatlari qabul qilingan.



1-rasm. Qishloq yoshlari ishsizligini kamaytirishdagi to'siqlar.*

Manba: mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

Aholining bunday o'sishi mamlakatda yangi ish joylarini tez sur'atlar bilan yaratish va yoshlarning ishsizligini kamaytirishdek muhim muammolarning yechimini topishni talab etmoqda. Lekin bu borada jiddiy ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy va tashkiliy to'siqlar mavjud (1-rasm).

Tahlil va natijalar.

Qishloq ishsiz yoshlarini kasb-hunarga qayta tayyorlashni samarali tashkil etish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan yangi kasb-hunar va mutaxassisliklarga ega bo'lish uchun ularga tegishli shart-sharoitlar yaratish maqsadida qator qonunosti hujjatlari qabul qilingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida qishloqda ishsiz yoshlarini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimi tarkibiga:

- Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ishsiz shaxslarini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishga doir masalalar bilan shug'ullanadigan tuzilmaviy bo'linmalari;
- texnikumlar, kollejlari va kasb-hunar maktablari;
- korxona, muassasa, tashkilotlarning o'quv bo'linmalari;
- ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirishning barcha turlari va shakllari bo'yicha kasbiy ta'limni tashkil qiladigan hududiy mehnat bo'limlarining joylardagi o'quv markazlari;
- malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimining oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari (akademik litseylar) qoshidagi o'quv muassasalar;

– ta’limni tashkil etish xususida ruxsatnomasi bo’lgan tijorat va xo’jalik hisobidagi tashkilotlar, uyushmalar;

– shogirdlarga kasb o’rgatish imkoniyatiga ega bo’lgan “Hunarmand” uyushmasiga a’zo bo’lgan tadbirkor xalq ustalarining maktablari kiradi⁹.

2016-yilning sentabridan o’z faoliyatini **Samarqand shahrida O’zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi va Janubiy Koreya Xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) hamkorligida “O’zbekistonda kasb ta’limi imkoniyatlarini rivojlantirish” loyihasi doirasida boshlagan** kasb-hunarga o’qitish markazida mehnat bozorida talab yuqori bo’lgan 4 ta yo’nalish bo’yicha 240 nafar band bo’lmagan shahar va qishloq yoshlari kasbga qayta o’qitilmoqda.

Shuningdek, Shahrisabz shahrida ham tashkil etilgan KOICA hamkorligidagi o’quv markazi 2018-yil sentabr oyida ishga tushirilib, mehnat bozorida talab yuqori bo’lgan 4 ta yo’nalish bo’yicha 240 nafar band bo’lmagan shahar va qishloq yoshlarini kasbga qayta o’qitmoqda. Urganch va Qo’qon shaharlarida xuddi shunday o’quv markazlarini 2019-yilda tashkil etish bo’yicha Koreya Xalqaro Hamkorlik agentligi (KOICA) bilan kelishilgan, Buxoro va Termiz shaharlarida esa 2020-yilda tashkil etish rejalashtirilgan.

Qishloq joylaridagi ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o’qitish markazlarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

– ishsizlar hamda vaqtincha band bo’lmagan aholini, shu jumladan, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni bitirgan doimiy ishga ega bo’lmagan shaxslarni o’qitish muddati 1 yildan ortiq bo’lmagan muddatda bepul kasb-hunarga qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

– mehnat organlarida ishsiz sifatida ro’yxatdan o’tmagan, ish izlayotgan shaxslarni, shuningdek, ish beruvchilarning buyurtmanomalari bo’yicha – xodimlarni, har yili o’qitiladiganlar sonining 15 foizidan ortiq bo’lmagan hajmda, O’zbekiston qishloq mehnat bozorida talab yuqori bo’lgan kasblarga to’lov asosida qisqa muddatli o’qitishni tashkil etish¹⁰.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma’lumotlariga qaraganda, Respublikada ishsizlar soni ortib, aksincha, kasbga tayyorlashga yuborilgan ishsizlar soni kamayib bormoqda (1-jadval).

2016-yilning sentabridan o’z faoliyatini Samarqand shahrida O’zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi va Janubiy Koreya Xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) hamkorligida “O’zbekistonda kasb ta’limi imkoniyatlarini rivojlantirish” loyihasi doirasida boshlagan kasb-hunarga o’qitish markazida mehnat bozorida talab yuqori bo’lgan 4 ta yo’nalish bo’yicha 240 nafar band bo’lmagan shahar va qishloq yoshlari kasbga qayta o’qitilmoqda.

⁹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 14 октябрдаги 824-сон қарори билан “Ишсиз ва банд бўлмаган аҳолини касб-хунарга ўқитиш минтакавий марказларида ўқишга қабул қилиш, касб-хунарга ўқитиш тартиби тўғрисидаги низом”и. // www.lex.uz.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 10 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси ҳудудларида ишсиз фуқароларни касб-хунарга ўқитиш марказларини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 199-сонли қарори // www.lex.uz.

1-jadval

**O‘zbekiston Respublikasida ishsizlar va kasbga tayyorlashga
yuborilgan ishsizlar sonining o‘zgarishi***


Hududlar	2010-yil		2018-yil		2018-yilda nisb. o‘zgarishi, % da	
	ishsizlar soni, ming kishi	kasbga tayyorlashga yuborilganlar, kishi	ishsizlar soni, ming kishi	kasbga tayyorlashga yuborilganlar, kishi	ishsizlar soni, ming kishi	kasbga tayyorlashga yuborilganlar, kishi
O‘zbekiston Respublikasi	658,2	26239	724,0	12047	110,0	45,9
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	46,6	972	36,4	346	78,1	35,6
Viloyatlar:						
Andijon	68,2	2735	77,2	231	113,2	8,4
Buxoro	41,9	1707	47,0	146	112,2	8,6
Jizzax	23,0	840	26,0	463	113,0	55,1
Qashqadaryo	59,3	1385	66,0	564	111,3	40,7
Navoiy	21,1	982	22,3	356	105,7	36,3
Namangan	50,7	802	56,4	156	111,2	19,5
Samarqand	78,4	1072	90,6	273	115,6	25,5
Surxondaryo	48,3	1966	56,7	711	117,4	36,2
Sirdaryo	15,1	721	16,1	435	106,6	60,3
Toshkent	49,7	2218	55,3	1341	111,3	60,5
Farg‘ona	80,8	3126	88,3	5944	109,3	190,1
Xorazm	35,3	1273	41,6	245	117,8	19,2
Toshkent sh	39,8	6440	43,8	836	110,1	13,0

Manba: jadval O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblangan.

1-jadvaldan ko‘rinadiki, 2010–2018-yillar davomida respublika bo‘yicha ishsizlar soni 10 foizga ortgan. Bu davrda Qoraqalpog‘iston Respublikasida ishsizlar soni 21,9 foizga kamaygan, qolgan barcha hududlarda esa keskin ortgan. Tahlillar ishsizlar sonining ortganligiga qaramay, ularni kasbga tayyorlashga katta e’tibor qaratilmayotganini ko‘rsatadi. Ya’ni Respublikaning barcha hududlarida (Farg‘ona viloyati bundan istisno) kasbga tayyorlashga yuborilgan ishsizlar soni keskin qisqargan. O‘z navbatida, bu holat ishsizlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kamaytirishga olib keladi.

2-rasmda qishloq joylarida ishsiz yoshlarni kasbga yo‘naltirish va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish mexanizmlari aks etgan.

Respublikamizda bandlik va mehnat organlari ma’lumotlarini tahlil qilish asosida mamlakatimizda qishloq joylardagi ishsiz yoshlarni kasbga tayyorlash tizimining quyidagi kamchiliklari mavjudligi aniqlandi:



2-rasm. Qishloq joylarida ishsiz yoshlarni kasbga yo'naltirish va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish mexanizmlari. *

Manba: mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

- *qishloqning ishsiz yoshlarini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash reja ko'rsatkichlarining bajarilmasligi;*
- *joylardagi tayanch kasb-hunar kollejlari kasbga tayyorlashni tashkil qilishga kam e'tibor berilayotgani va h.k.*

– qishloqning ishsiz yoshlarini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash reja ko'rsatkichlarining bajarilmasligi;

– joylardagi tayanch kasb-hunar kollejlari kasbga tayyorlashni tashkil qilishga kam e'tibor berilayotgani va h.k.

***Mehnat bozorida
talab yuqori
bo'lgan yangi
kasblar bo'yicha
yoshlarni kasbga
tayyorlashni yo'lga
qo'yish (florist,
internet bo'yicha
dizayner, reklama
menejeri, veb-sayt
yaratish bo'yicha
mutaxassis).***

Bizning fikrimizcha, yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

- qishloq hududlaridagi mavjud korxona va xo'jaliklarda mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;
- kasbga tayyorlanadigan fuqarolarning qishloq tumanlari korxona va xo'jaliklarida ishga joylashishlarini kafolatlash;
- qishloq ishsiz yoshlarini tayanch kasb-hunar kollejlariida kasbga tayyorlashga alohida e'tibor qaratish;
- mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan yangi kasblar bo'yicha yoshlarni kasbga tayyorlashni yo'lga qo'yish (florist, internet bo'yicha dizayner, reklama menejeri, veb-sayt yaratish bo'yicha mutaxassis).

Qishloq joylarida ishsiz yoshlarni kasbga yo'naltirish va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Qishloq joylarida ishsiz yoshlarni mehnatga, umumta'lim va kasbiy tayyorlashga ko'maklashish, xususan,

– o'quv yurtlariga qo'shimcha ta'lim sohaviy klublari va markazlarini tashkil etish yo'li bilan o'quvchilar va talabalarni ijtimoiylashtirishda, ularning manfaatlarini amalga oshirishga yordam berish. Bunday markazlarning faoliyat ko'rsatish dasturlariga seminarlarni kiritish kerak. Seminarlarda yoshlar mehnat bozoridagi real vaziyat yoritiladi, ish qidirish sharoitidagi xatti-harakat prinsiplari o'qitiladi; o'z mansabini rejalashtirish va rivojlantirishda yordam ko'rsatiladi;

– o'quvchilar va talabalar tashabbusini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, innovatsion yoshlar loyihalari tanlovlarini tashkil etish; bitiruvchilarni istiqbolli ish bilan ta'minlashga yo'naltirilgan prinsiplar asosida faoliyat ko'rsatuvchi yoshlar jamoat tashkilotlarini (masalan, yoshlarni ishga joylashtirish byurosini) qo'llab-quvvatlash.

2. Qishloq joylarda ishsiz yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar va mutaxassisliklarga professional o'qitish yuzasidan qisqa muddatli kurslar sonini ko'paytirish va sifatini oshirish. Jumladan,

- hududiy mehnat bozorida ishchi kuchiga ehtiyoj yuqori bo'lgan ishchi kasblar va mutaxassisliklar ro'yxatini shakllantirish;
- qishloq joylarda ishsiz yoshlarni kasb-hunarga o'qitish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari sonini va sifatini oshirish maqsadida nodavlat ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish hamda ularni Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirishni kengaytirish;

- tuman (shahar) BKMLari yo‘llanmasi asosida ishga joylashtirilgan yoxud kasbga o‘qitishga yo‘naltirilgan ishsiz yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish;

- kasb-hunar kollejlari bazasida xorijiy tajriba va mehnat bozori talablaridan kelib chiqib qishloq ishsiz yoshlarini kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha kurslarni o‘z ichiga olgan zamonaviy markazlarni tashkil etish;

- Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan ishchilarning malaka darajasi, kompetentligi va ko‘nikmalarini baholashning milliy tizimini joriy etish;

- ishsiz yoshlarning kasb-hunarga bo‘lgan xohishini va mehnat yo‘nalishlarini aniqlash uchun ijtimoiy tadqiqotlar o‘tkazilishini tashkil etish.

3. Ta‘lim tizimida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish.

Ta‘lim tizimining samaradorligi masalasi so‘nggi yillarda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Talab etilmagan, keyinchalik kasbi va mutaxassisligini o‘zgartirishga majbur bo‘ladigan mutaxassislarni tayyorlash jamiyat manfaatlarini nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq emas.

Ushbu masalaning yechimi o‘rta va uzoq muddatli davr uchun mehnat bozoridagi ishchi kuchiga bo‘lgan talabning monitoringini o‘tkazish bilan bog‘liq. Har qanday mahalliy hokimiyatlar yoshlar mehnat bozoridagi talab va taklif tarkibidagi nomutanosiblikning yuqori darajada bo‘lishining oldini olish uchun ta‘lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash hajmi va sohalarining mintaqa ishlab chiqarish – xo‘jalik majmuyi ehtiyojlariga mos kelishini ta‘minlash chora-tadbirlarini amalga oshirishi kerak. Bu yoshlar mehnat bozorida ehtiyoj yuqori mutaxassisliklar nufuzini ko‘tarish dasturini faol amalga oshirish orqali ta‘lim muassasalariga bevosita, abituriyentlarga esa bilvosita ta‘sir ko‘rsatish chora-tadbirlari bo‘lishi mumkin.

4. Ayniqsa, innovatsion ishlanmalar bilan bog‘liq tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun imtiyozli sharoitlarni yaratish. Gap “yosh tadbirkorlar uchun boshlang‘ich kapital” dasturi, shuningdek, yosh tadbirkorlar uchun soliq stavkalari va yig‘imlarning moslashuvchan shkalasini yaratish yo‘li bilan soliqqa tortish institutining tartibga soluvchi funksiyasini takomillashtirish haqida boryapti. Bu mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy, ilmiy, ta‘lim, ijtimoiy-siyosiy resurslarini ko‘paytirishga qodir bo‘lgan avlodni tayyorlash uchun zarur.

5. Yosh mutaxassislarni ishga qabul qilish tartibini o‘zgartirish.

Bugungi kunda ko‘plab ish beruvchilar yosh mutaxassislarga nisbatan

Ushbu masalaning yechimi o‘rta va uzoq muddatli davr uchun mehnat bozoridagi ishchi kuchiga bo‘lgan talabning monitoringini o‘tkazish bilan bog‘liq.

Ish beruvchi yosh mutaxassisning (hatto OTMni tugatganidan keyin ham) tajribasi va ko'nikmasi hamma vaqt ham ishlab chiqarish talablariga mos kelmasligi bilan bog'liq o'qitish va malaka oshirish bo'yicha qo'shimcha xarajatlarga yanada salbiy munosabatda bo'ladi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning yoshlar uchun soliqqa tortish va badallarni undirishning imtiyozli davrini vujudga keltirish bo'yicha chora-tadbirlari ushbu vaziyatdan chiqish yo'li bo'lishi mumkin.

oshirilgan talablarni qo'yishmoqda, aksariyat kompaniyalar yoshlar mehnatidan foydalanishga ehtiyoj sezmayapti, yoshlar uchun o'z korxonasi doirasida mansabda o'sish imkoniyatini taqdim etmayapti. Shuning uchun ishga qabul qilish mezonlarini yumshatish, xususan, ish tajribasiga ega bo'lmagan yoshlarni ular uchun ish o'rinlarini kvotalash yo'li bilan qabul qilish.

6. Oliy ta'lim muassasalari huzurida kichik korxonalar tashkil etish. Bunday tashkilotlar, asosan, oliy o'quv yurtlarining yuqori bosqich talabalari bitiruvchilaridan tarkib topishi kerakligi nazarda tutiladi. Bu yosh mutaxassislarning amaliy tajribaga ega bo'lishi orqali ta'lim muassasasi bilan ishlab chiqarish o'rtasida bog'lovchi bo'g'inni hosil qilish va kam bo'lsa-da, barqaror ishhaqi olish muammosini hal etish imkonini beradi. Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy muassasalar qoshida kichik innovatsion korxonalar tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlariga intellektual faoliyat natijalarini, shu jumladan, EHM uchun dasturlar, ma'lumotlar bazalari, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, ishlab chiqarish sirlari (nou-xau)ni amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

7. Qishloq joylarida ishsiz yoshlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini ishlab chiqishda yoshlarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadlarini belgilab olish zarur. Bunda davlatning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatish vositasi hisoblangan soliq tizimining tartibga soluvchi funksiyasini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bunday choralarni qo'llash zarurati barcha ish beruvchilarda xodimlarni saqlash xarajatlarning doimiy ravishda ortib borayotgani tufayli yuzaga kelmoqda.

Xulosa va takliflar. So'nggi yillarda soliqlar va yig'imlar bo'yicha stavkalar oshirilgani munosabati bilan mehnat bozoridagi vaziyat yanada murakkablashdi: birinchidan, yuqorida sanab o'tilgan barcha soliqlar va yig'imlar to'langanidan keyin ish beruvchi yosh xodimlar, hech bo'lmaganda, eng kam iste'mol standartlariga ega bo'lish imkonini beruvchi sof daromad darajasini ta'minlay olmaydi; ikkinchidan, ish beruvchi yosh mutaxassisning (hatto OTMni tugatganidan keyin ham) tajribasi va ko'nikmasi hamma vaqt ham ishlab chiqarish talablariga mos kelmasligi bilan bog'liq o'qitish va malaka oshirish bo'yicha qo'shimcha xarajatlarga yanada salbiy munosabatda bo'ladi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning yoshlar uchun soliqqa tortish va badallarni undirishning imtiyozli davrini vujudga keltirish bo'yicha chora-tadbirlari ushbu vaziyatdan chiqish yo'li bo'lishi mumkin.

Yoshlar uchun soliqqa tortish bo'yicha imtiyozli davrning joriy etilishi turli toifadagi ish beruvchilar va fuqarolar uchun qo'llanadigan "Turli toifadagi ish beruvchilar uchun sug'urta badallari stavkalari" ro'yxatida o'z aksini topishi kerak. Majburiy soliqlar va yig'imlar bo'yicha stavkalar kamaytirilgan taqdirda ishsiz yoshlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi va o'z navbatida, ularning ish bilan bandligi sezilarli darajada oshadi. Soliq tizimini tartibga soluvchi funksiyasining kuchayishi natijasida ishsiz yoshlar soni faol o'sishining pasayishi, kichik biznesning mehnatga haq to'lashdagi "xufyona tizim"dan chiqishi, ishsizlar tarkibida yoshlar ulushining qisqarishi hisobidan aholi bandligining yuqori darajasiga erishish ko'rinishida katta miqdordagi iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash mumkin.

O'zbekistonda ishsiz yoshlarni kasb-hunarga o'qitishga ko'maklashuvchi Telegram ilovasida "kasb-hunar" avtorobot botini yaratish tavsiya etiladi.

Bu dastur qishloq joylarda ishsiz yoshlarga mavjud ish o'rinlarini topishning tezkorligini oshirish, o'z bizneslarini ochishiga ko'maklashish va yangi biznes g'oyalarni taqdim etish, shuningdek, bo'lajak tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar to'g'risida ma'lumot berish, ishsiz yoshlarga o'z sohalari bo'yicha yangiliklarni taqdim etish, ishsiz yoshlarni o'z hududidagi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish, ish beruvchilar va yollanib ishlovchi yoshlarni o'zlarining talabiga ko'ra qidirib topish va ma'lumot taqdim etish kabi afzalliklarni taqdim etadi.

Yosh ishsizlar ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlam bo'lgani bois ularga Telegram ilovasida "kasb-hunar" avtorobot botini bepul foydalanishga topshirish maqsadga muvofiq.

Qishloq joylarida ishsiz yoshlarni kasbga yo'naltirish va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish va ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish uchun sharoitlar yaratishi mumkin bo'lgan tadbirlar, alohida olib qaralganda, texnikumlar, kollejlari, kasb-hunar maktablari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozoriga ommaviy chiqishi natijasida yuzaga keladigan vazifalarni hal etishga qodir bo'lmagan ayrim yo'nalishlarni o'zida namoyon etadi. Mazkur tadbirlar bir-birini to'ldiradi va ular umumiy institutsional muhitda birlashtirilgan taqdirdagina qishloq joylarida ishsiz yoshlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi darajasini oshirish va ularning ishsizligini kamaytirish uchun shart-sharoit yuzaga kelishi mumkin.

Majburiy soliqlar va yig'imlar bo'yicha stavkalar kamaytirilgan taqdirda ishsiz yoshlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi va o'z navbatida, ularning ish bilan bandligi sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://azon.uz/content/views/30846> rasmiy kanali ma'lumotlari.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида”ги Қонуни // www.lex.uz.
3. Касбий таълим ва аҳолининг ишсиз қатламини қайта тайёрлаш // <https://mehnat.uz>.
4. Шатокин А.Г. Конкурентоспособность работников на рынке труда / Автореф. дис. ... на соиск. уч. степ. к.э.н. – Ярославль, 2000. – С.6-7.
5. Гельвановский М. Конкурентоспособность в микро- мезо- и макроуровневом измерениях // Российский экономический журнал, 2008.– №3. – С. 66-77.
6. Меликьян Г.Г., Колосова Р.П. Экономика труда и социально-трудовые отношения. – Москва, 2014. – С.300.
7. Вирина И.В. Формирование и развитие конкурентоспособности молодых специалистов на рынке труда / Автореферат дис. ... на соиск. уч. степ. к.э.н. – Москва, 2007 – С.5.
8. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитасининг маълумотлари.
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 14 октябрдаги 824-сон қарори билан “Ишсиз ва банд бўлмаган аҳолини касб-ҳунарга ўқитиш минтақавий марказларида ўқишга қабул қилиш, касб-ҳунарга ўқитиш тартиби тўғрисида”ги низоми. // www.lex.uz.
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 10 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси ҳудудларида ишсиз фуқароларни касб-ҳунарга ўқитиш марказларини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 199-сонли қарори // www.lex.uz.
11. Холмўминов Ш.Р., Хомитов К.З., Арабов Н.У., Бобаназарова Ж.Х., Абдураманов Х.Х. Қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашнинг самарали ижтимоий-иқтисодий механизмлари / Монография. – Тошкент: “Инновацион ривожланиш навириёт-матбаа уйи”, 2019, – 248 бет.